



OZUQA RATSIONINI “PROBIOKORM” QO‘SHIMCHASI BILAN BOYITISHNING QUYONLAR PUSHTDORLIK KO‘RSATGICHLARIGA TA’SIRI

Erkinova Latofat Umidjon qizi

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining*

Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi

[Tel: +998933799444](tel:+998933799444)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20934110>

Annotatsiya. Quyonglar boshqa qishloq xo‘jalik hayvonlaridan yuqori pushtdorlik xususiyatiga ega. Naslli quyonglardan yil davomida o‘rtacha 50-80 bosh quyong bolalar olinadi, ya‘ni 1 bosh ona quyongdan bir okrola 8-10 avlod olishga erishiladi. Mahalliy populyatsiyadagi quyonglarda bu ko‘rsatgichlar kamroq bo‘ladi, shuningdek ularning jussasi kichikroq, sutdorligi va mahsuldorligi past, kech yetuluvchan va o‘rtacha bitta ona quyongdan bir okrola 4-6 ta bola olinadi.

Kalit so‘zlar: quyong, “ProBioKorm”, okrol, sukrol, probiotik, pushtdorlik.

Shuning uchun tadqiqotlarimizda “ProBioKorm” universal ozuqabop qo‘shimchasini mahalliy populyatsiyadagi quyonglarning pushtdorlik ko‘rsatgichlariga va quyong bolalarining yashovchanligiga ta’siri o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ona quyonglarning pushtdorlik ko‘rsatgichlari, n=10

Ko‘rsatgichlar	I-guruh (AOR)	II-guruh (AOR + “ProBioKorm”)
Urug‘lantirish oldidagi ona quyonglarni tirik vazni, g	3505±14,2	3531±13,3
Urug‘lantirishdagi ona quyonglar yoshi, kun	153	150
Sukrol davri davomiyligi, kun	30,6	29,3



Yil davomida 1 bosh ona quyondan olingan bola, bosh jami (4 ta okrol)	19,2	20,8
Tirik tug'ilgan quyon bolalari	15,2	19,3
O'lik tug'ilgan quyon bolalari	4	1,5
O'rtacha 1 bosh ona quyondan olingan tirik bola,bosh	3,8	4,83
1 bosh ona quyonlarning sutdorligi, g	3138,0	4388,5

Urg'ochi quyonlarni 150 kunlik yoshida va tirik vazni 3500 g kam bo'lmaganida urug'lantirish rejalashtirilgan.

Jadval ma'lumotiga ko'ra qochirishdan oldingi tirik vazn tajriba guruhidagi urg'ochi quyonlarda nazorat guruhi quyonlardan 26 g yuqori bo'lgan va ular 150 kunlik yoshida sun'iy urug'lantirilgan. Nazorat guruhidagi quyonlar rejalashtirilgan qochirish vazniga 153 kunda yetkazilib urug'lantirilgan.

Guruhdagi quyonlarni sukrollik (bug'ozlik) davri muddati bir hil bo'lmagan. Probiotik iste'mol qilgan II guruh quyonlarda bu jarayon o'rtacha 1,3 kunga tengdoshlariga nisbatan kam kechgan.

Ona quyonlardan yiliga 4 ta okrol olindi. "ProBioKorm" probiotikini quyonlar ratsionga qushib berish olingan quyon bolalari soniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'rtacha 1 bosh ona quyondan tajriba guruhida 8,3% bola ko'p olindi, shuningdek, tirik tug'ilganlar 4,1 bosh ko'p va o'lik tug'ilganlar 2,5 boshga kam bo'lganligi kuzatildi. Ona quyonlarning sutdorlik xususiyatlari quyon bolalarining sog'lom o'sish va rivojlanishi, yashovchanligi va mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bizning tadqiqotimizda probiotik qabul qilgan ona quyonlarning sutdorligi tug'ishdan keyingi 21 kunda nazorat guruhiga nisbatan 1250,5 g, yoki 39,9% ko'p bo'lgan va shu sababli tajriba guruhidagi quyon bolalarining mahsuldorligi yuqori ko'rsatgichga ega. Quyon bolalarining ichimlik suviga probiotik qo'shib berish hamda ona quyonlarni yuqori sutdorligi quyon bolalarini yashovchanligiga ta'sir ko'rsatmay o'tmadi. Ma'lumki, quyon bolalari tugilganidan 20-21 kunlik yoshigacha ona suti bilan



oziqlanadi va 20-21 kundan keyin inidan chiqib o'simlik oзуқalar bilan oziqlanishni boshlaydi va kun sayin bu iste'mol oshib boraveradi, Keyingi 2-3 hafta muhim davr hisoblanadi, o'simlik oзуқalarni o'zlashtirish og'ir kechadi va quyon bolalarini yashovchanligiga salbiy ta'sir qiladi.

Bu davrda ona quyonlarning sut mahsuldorligi kamayadi va 45-60 kunligida butunlay to'xtaydi. Quyon bolalari shu davrda ko'pincha onasidan ajratiladi. Bizning tadqiqotimizda quyon bolalari 60 kunlik yoshida onasidan ajratildi. Quyon bolalarini oзуқа ratsioniga probiotikni qo'shib berish salbiy ta'sirni kamaytirishga va yashovchanlikni oshirishga olib keldi (2-jadval).

2-jadval

Quyon bolalarining yashovchanlik ko'rsatgichlari

Yoshi, kun	Ko'rsatgichlar	I-guruh (AOR)	II-guruh (AOR + “ProBioKorm”
Tug'ilganda	Tirik quyonlar,bosh	61	77
21- kun	O'ldi, bosh	1	1
	Tirik quyonlar,bosh	60	76
30- kun	O'ldi, bosh	6	3
	Tirik quyonlar,bosh	54	73
45- kun	O'ldi, bosh	3	1
	Tirik quyonlar,bosh	51	72
Quyon bolalarining yashovchanligi, %		83,6%	93,5%

Guruhlardagi ona quyonlardan yil davomida jami I guruhda (nazorat) 61 ta, II guruhda (tajriba) 77 ta tirik quyon bolalari tug'ilgan. 21- kunga kelib ikkala guruhda bittadan quyon bolalari nobud bo'ldi va yashovchanlik ko'rsatgichi mos ravishda 98,4 va 97,7 foizni tashkil qildi. 30- kunga kelib I guruhda (nazorat) o'lganlar soni 6 ta, II guruhda (tajriba) 3 bosh bo'ldi va bu davrda o'lim ko'rsatgichi qolgan davrlarga nisbatan yuqori bo'lgan. 45-chi kunga kelib quyon bolalar soni nazorat guruhida 51 bosh va tajriba guruhida 72 bosh tirik qolgan. “ProBioKorm” probiotikini qabul qilgan quyon bolalari



guruhida yashovchanlik 93,5 foizni tashkil qilib, nazorat guruhidan 9,9 foizga yuqori bo'lgan.

Xulosa. “ProBioKorm” universal probiotigini quyonlar ozuqa ratsioniga kiritish quyonlarning ayrim fiziologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni, ona quyonlar va quyon bolalarida tana harorati, nafas nazorati, yurak dinamikasi va gemodinamik ko'rsatkichlari ijobiy ta'rafga o'zgartirishi isbotlangan. Probiotik ta'sirida, quyonlarning pushtdorlik ko'rsatkichlarida 39,9% ga oshib ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan va quyonchilikda mahsuldorlik oshirishga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. К.И.Хидиров, Ф.Б.Бахриддинов, С.И.Мавлонов, Р.И.Рузиев, Д.К.Юлдашев, Б.Рахмонов, Л.Эркинова. Қуёнлар биологияси, маҳсулдорлиги ва наслчилиги иши. Тошкент-2023.
2. Левахин, Ю.И. Влияние комплексного пробиотического препарата на переваримость питательных веществ рационов / Ю.И. Левахин, А.Г. Мещеряков, Д.В. Естеев // Пути интенсификации производства и переработки сельскохозяйственной продукции в современных условиях: Матер. междунар. науч.-практ. конф. Волгоград.–2012.
3. Алексеева, Е.А. Молочность крольчих / Алексеева Е.А. // Аграрная наука на рубеже веков: материалы всерос. науч.-практич. конф. / Краснояр. гос. аг-рар. ун-т. Красноярск–2005.
4. Балакирев Н.А. Из истории развития кролиководства / Н.А. Балакирев., Р.М. Нигматуллин // Кролиководство и звероводство.№1. –2013.
5. Востроилов А.В, Курчаева Е.Е, Максимов И.В Эффективность использования пробиотиков для повышения продуктивности кроликов// Вестник КрасГАУ. 2019. № 12. УДК 636.52.034 DOI: 10.36718/1819-4036–2019.